

ANDALUSIYADA ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSION TARAQQIYOTI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-62-67>

Ikramova Iroda Rixsivayevna

TDSHU Toshkent O'zbekiston

Sharq falsafasi va germenevtika kafedراسi dotsenti, PhD

dr.iroda85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Andalusiyada islom falsafasining shakllanish jarayoni, uning tarixiy-falsafiy asoslari hamda evolyutsion taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida musulmon Ispaniyasida ilm-fan va falsafaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillar yoritiladi. Maqolada Andalusiya falsafiy maktabining yunon falsafasi merosini qayta talqin qilishdagi o'rni, aql va vahiy munosabatiga oid qarashlari hamda Yevropa sxolastik falsafasiga ko'rsatgan ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Andalusiya islom falsafasi nafaqat musulmon dunyosi, balki jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida muhim ilmiy-ma'naviy markaz bo'lgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Musulmon Ispaniyasi, islom falsafasi, Andalusiya, e'tiqod, aql, Ibn Tufayl, Ibn Bojja, Ibn Rushd.

Falsafaning kirib kelishi islom olamida ratsionallikni yanada rivojlantirdi. Musulmon mamlakatlariga yunon falsafasi, madaniyatqay tarzda kirib kelgani haqida manbalar ko'p. Xususan, Muhammad ibn Is'hoq an-Nadin “Al-Fihrist” asarida bu haqida: “IX asr boshlarida musulmon mamlakatlarining markazi bo'lmish Bag'dod qasrlarida, ko'chalarida Aflotun va Arastu nomlari jaranglay boshladi. Shu davrdan boshlab arab tiliga bir necha yangicha so'zlar kirib keldi. Masalan, birinchi materiya - فلسفة، هيولى - falsafa”¹ – deb yozadi.

Yunonlarning Suqrot dan Aflotun orqali Arastugacha bo'lgan yuksak darajada rivojlangan falsafiy madaniyat O'rta asrlarda arab-musulmon xalqlari ilmiy, falsafiy madaniyatining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Qadimgi yunon falsafasining ratsionallik xususiyati O'rta asrlar arab-musulmon faylasuflari ilmiy-falsafiy tafakkurining asosiy sifatiga, xususiyatiga aylanib bo'lgan edi. Shunigdek, falsafa tarixi, undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha ish olib borgan tadqiqotchi Sayyid Ibn Sayyid, bu falsafa yo'nalishini ilk boshidanoq islom jamiyatida hokimiyat va davlat tashkil etish muammolari bilan bog'liq bo'lganligini ta'kidlaydi: “Bundan kelib chiqib, aniq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, arab-musulmon faylasuflarining e'tiborlari qaratilgan masalalar va muammolarning asosiy doirasi aniq insonparvarlikni qamrab olgan edi”². Shu jihatdan, Sharq peripatetik falsafasining to'laqonli mohiyatida, uning turli mavzularida ham inson muammolari, uning aqliga

¹ Abu Faraj ibn Ishoq al Bag'dodiy Ibni Nadim. Al-Fixrist fi Akbar ul-ulamail musannifin minal qudamai val muhdisin va asmai kutubihim. – Bayrut: Darul ma'rifa, 1397/1978. – S. 303-304 s.

² سيد ابن سيد. الفتح و السياسة. بيروت. 1985. – ص. 7.

yuqori baho berish doimo mavjud bo‘lgan. Qadimgi insoniyatning haqiqiy merosxo‘rlari deb atalgan XIV asr italyan gumanistlarini emas, aynan peripatetiklarni biz haqiqiy merosxo‘rlar deb atasak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, aynan ular qadimgi yunon falsafasi, madaniyati va ilm-fanining oliyanob merosini Yevropa uchun saqlab, rivojlantirib yetkazib berganlar.

Bu jarayonlarda albatta ispaniyalik arab-musulmon va yahudiy mutafakkirlarining ham hissalarini kattadir. Ularning ilmiy-nazariy va falsafiy g‘oyalari, qarashlari Sharq peripatetizmining umumiy an‘analarini boyitib, rivojlantirgan hisoblanadi. Ular arab dunyosining bu qismi (musulmon Ispaniyasi) aholisining mentalitetiga ham ta‘sir ko‘rsatdilar. Shuningdek, bu o‘ta murakkab jamiyatdagi etnik, madaniy va diniy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga ham yetarlicha ta‘sir etdilar. O‘ta murakkab jamiyat deyishimizning sababi musulmon Ispaniyasi o‘zida turli xil madaniyatlar, dinlar, mentalitetlar, qadriyatlarni bir makonda jamlagan zamin hisoblanadi.

Bunday muhitni keltirib chiqargan vaziyatlarni aniqlash uchun Ispaniyaning tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. “Bu turli xil xalqlarning o‘z nutqlari, o‘z qonlari, o‘zlarining ushalmagan orzulari bir bo‘lib qorishib ketgan tushunarsiz joydir. Bu ko‘priklarda ajoyib hamda fojiali voqea-hodisalar bo‘lib turadi va biz uni Ispaniya deb ataymiz”³, deb boshlaydi Arturo Peres-Reverte o‘zining bugungi kunda Ispaniyada tez sur‘atda mashhurlikka erishgan “Ispaniya tarixi” (Una historia de Espana) asarida.

Islom kirib kelgandan keyin Ispaniya sezilarli iqtisodiy va madaniy yuksalishga erishdi. “Andalusiya-dagi aql bovar qilmaydigan madaniy yuksalish jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy darajasining oshishi bilan birga keldi”⁴. Qurudobada katta kutubxona va “oliy” maktab bo‘lib, u birinchi marta arab Ispaniyasida paydo bo‘lgan. Bu davrda tabiiy fanlar ham rivojlandi: tibbiyot, matematika, geografiya va boshqalar. “Andalusiya-dagi falsafa Yaqin Sharq arabzabon falsafasi ruhida tarbiyalangan va umuman olganda, arab Ispaniyasining intellektual hayoti ancha uzoq vaqt davomida qolgan musulmon dunyosi bilan madaniy aloqalar orqali qo‘llab quvvatlangan”⁵. Bu davrda Andalusiya-dagi buyuk olimlar buyuk faylasuflar yetishib chiqdilar: Ibn Masarra, al-Majritiy, al-Qarmani, al-Hadramiy, Ibn Barg‘us, al-Iqlidiy, Ibn Bojja, Ibn Tufayl, Ibn Rushd, Ibn Arabiy va boshqalar. A.A.Ignatenkoning fikriga ko‘ra, “Andalusiyaning intellektual hayotida falsafaga nisbatan kechroq qiziqish bo‘ldi, aytaylik, u yerda Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning ilmiy obro‘sigacha mos keladigan mutafakkirlarning uzoq vaqt davomida yo‘qligi bilan ajralib turadi”⁶. Bu holat ancha vaqt davom etdi. A.A.Ignatenkoning fikriga to‘xtaladigan bo‘lsak, arablar kirib kelgan bu hududda ilk boshida, xatto uch asr davomida dunyoga mashhur yirik faylasuflar nomini uchratmaymiz. Buni yuqorida nomlari keltirilgan faylasuflarning yashash davri bilan ham solishtirsak bo‘ladi. Keyingi davrlarda bu jarayon ancha jadallashib ketdi.

³ Arturo Peres-Reverte. Una historia de Espana. – Espana, 2018. – P. 17.

⁴ Рафаэль Альтамира-и-Кревеа. История Испании. Том 1. /Отв. ред. тома Ведюшкин В.А., Попова Г.А. – М.: Индрик, 2012. – С. 325.

⁵ Леви-Провансаль Э. Арабская культура в Испании. Общий обзор пер. с фр., Предисл. Иванова Н.А. – М.: Наука, 1967. – С. 27.

⁶ Игнетенко А.А. В поисках счастья. – М., 1989. – С. 156.

O‘rta asr arab-musulmon falsafasi G‘arb ma‘naviy madaniyatini qadimgi yunon falsafasi bilan bog‘lab bergan zaruriy pog‘ona vazifasini o‘tadi. Tarixchi olim A. V. Koyre (1892 – 1964) to‘g‘ri ko‘rsatganiday, “bu davrda arablar lotin g‘arbining ustozlari va tarbiyachilari bo‘ldilar”⁷. Zero, yunon faylasuflarining asarlari lotin tiliga bevosita yunon tilidan emas, balki ularning arab tilidagi sharhlaridan tarjima qilib olindi va bu hol G‘arbda qadimgi yunon tilini biladigan olimlar qolmagani yoki hali yo‘qligi tufayli emas, balki Arastuning “Metafizikasi” yoki Ptolemeyning “Almagesti” kabi murakkab asarlarini Forobiy, Ibn Sino yoki Ibn Rushd yordamisiz tushunish mumkin bo‘lmay qolgani tufayli sodir bo‘lgan edi.

Qadimgi yunon falsafasidan ta’sirlangan Sharq peripatetizmi bu mintaqada qay tarzda vujudga keldi? Muhimi uning Sharqda rivojlanishining sabablari nimada edi? Uning yana G‘arpga tomon yo‘nalish olishi bosqichlari qanday bo‘lgan?, degan savol tug‘iladi. Tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga tayanib, mazkur jarayonni baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Iskandariya VII asrda yunon falsafasi, mantig‘i va ilohiyotini tadqiq qiladigan muhim markazga aylangan edi. Islom dini tarjimachilik maktabi vositasida yunon mantig‘i va gnoseologiyasini, asosan, Arastu nomi bilan o‘rgangan. Yunon tilini o‘rganish Suriya va Iroqda VI asrda, Antokiya, Harron shaharlarida, Suriya shimolidagi Kinnasarin, yuqori Iroqdagi Nisaybin va Rassilaynda sal keyinroq boshlangan edi. Yunon tilini o‘rganish Iskandariyadan o‘tgan yunon ilohiyotini o‘rganishdan boshlangan. Ular vositasida arab xalqlari antik davr falsafasi va tabiiy fanlari bilan tanishishga muvoffaq bo‘ldilar. Tarjimachilik faoliyatining falsafa yo‘nalishida asosiy e’tibor Ptolemey, Arastu va Aflotun asarlariga qaratilgan edi. Sharq peripatetizmining shakllanishida ham aynan shu asarlar asos vazifasini o‘tadi.

Musulmon sharqida yunon falsafasining yoyilishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u VIII asrda rivojlangan mu‘taziliylar bilan ham bog‘liqdir. Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri hisoblangan mu‘taziliylar (arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar)ning kelib chiqishi nazariy jihatdan muhim voqea bo‘ldi. Mu‘taziliylik islom tarixida shariatning turli jihatlariga oqilona talqin berishga harakat qilgan ratsionalistik qarashlar asosiga qurilgan birinchi mafkuraviy maktab bo‘ldi.

Fikrimizcha, mu‘taziliylarning ratsionalistik qarashlari antik davr yunon-rim falsafasi an‘analari bilan yaxshi tanish bo‘lganligidan kelib chiqqan. Ular shariat qoidalarini tushuntirish va oqilona idrok etishda antik davr mutafakkirlarining falsafiy usullaridan foydalanganlar. Ya’ni, shariat qoidalarining germenevtik tahlilida qadimgi yunon faylasuflarining ratsional metodlariga tayanganlar.

Mu‘taziliylarning bu metodologiyasi ulardan keyingi faylasuflarga vorisiylik tamoyilida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. “Bu davr mutafakkirlari islom dini hukmronlik qilgan sharoitlarida ham olamning tabiati va mohiyati, uning taraqqiyoti, koinotning sirlari, insonning hayoti va uning dunyodagi o‘rni haqida, insonda uchraydigan har xil kasalliklarning sabablari haqida diniy qarashlar bilan birga, ulardan tubdan farq qiladigan tabiiy-ilmiiy va falsafiy qarashlarni ham dialektik jarayon sifatida ilgari

⁷ Койре А.В. Очерки истории философской мысли. – М.: Прогресс, 1985. – С. 157.

suradilar. Bu bilan ular ilg‘or falsafiy dunyoqarashga va tabiatshunoslik bilimlari rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar”⁸. Arab halifaligiga qarashli xududlarda ilm-fanning rivojlanishi natijasida erkin fikr yurituvchi olimlar ham yetishib chiqdilar. Mazkur faylasuflar o‘z qarashlari bilan O‘rta asr arab-musulmon falsafasiga asos soldilar. Bu qadimgi yunon falsafasi bilan tanish bo‘lgan Sharq mashshoiyyunlari bo‘lib, uning yirik vakillari al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, as-Sijistoniyy, Ibn Miskavayh va Ibn Sinodan tortib musulmon Ispaniyasidagi Ibn Bojja, Ibn Tufayl, Ibn Rushdning o‘rni katta.

Islom falsafasining asosiy yo‘nalishlaridan biri mashshoiyyuna avval ko‘proq Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda rivojlandi. Keyinchalik mashshoiyyuna rivoji Markaziy Osiyodan musulmon Ispaniyasiga ko‘chdi. Sharq peripatetizmini Ispaniyada Abu Bakr Muhammad Ibn Bojja davom ettirdi. Ibn Bojja Sharq peripatizmining yanada rivojlanishiga, xususan, Ibn Tufayl dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatish bilan birga Abu Nasr Forobiy va Ibn Rushd o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘lib falsafiy ratsionalizmning izchil mohiyatini ham ko‘p jihatdan belgilab bergan. Ibn Bojja borliqning eng yuqori darajasi mutlaq zaruriy borliq (Xudo) tomonidan shakllangan, eng pasti esa mutlaq yo‘qlikdir, deydi. “Xudo “vojib ul-vujud”, unga nisbatan qolgan hamma narsa “mumkin ul-vujud” kabi ko‘rinadi”⁹. Ibn Bojjaning fikricha, olam abadiydir va Xudoning aralashuviz o‘z-o‘zidan rivojlanadi: “Dunyo – go‘yo oddiy bir tirik mavjudot bo‘lib, begona narsaga muhtoj emas”¹⁰.

Ibn Bojja o‘rtaga qo‘ygan masala Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino qo‘yganidek, axloqiy masala bo‘lib, o‘lgandan keyingi hayotga ham taaalluqli edi. Forobiy hamda Ibn Sino tasavvurlari shundan iborat ediki, falsafa ikki qism, ya‘ni nazariy va amaliy hikmatdan iborat bo‘lib, bu qismlar bir-birlarini to‘ldiradilar. “Ular fikricha, falsafaning maqsadi “ma‘rifat”dir, negaki, u insonni saodat sari boshlaydi yoki boshqa sohada “ma‘rifat” hosil qilish orqali ruhiy istakni qoniqtiradi”¹¹.

Andaluziya falsafasi tarixidagi keyingi buyuk shaxs Abu Bakr Muhammad ibn Tufayldir. Ibn Tufayl falsafada e‘tiborini bilish nazariyasi masalalariga qaratdi. Uning “Hay ibn Yaqson” qissasining falsafiy-gnoseologik jihati shundaki, unda tabiat ustidan g‘olib chiqqan insonning bilish bosqichlari aks ettiriladi. Asarda ontologiya va gnoseologiya, psixologiya va din, inson va jamiyat munosabatlari masalalari yoritilgan. Inson zotining tabiiy evolyutsiyasi tasviri berilgan va shu asosda dunyoni falsafiy haqiqat sifatida bilish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Fikrimizni Majid Faxriy xulosasi bilan tasdiqlaymiz: “U inson dunyoqarashining shakllanishini, eng avvalo, hayot va o‘lim haqida fikr yuritish bilan bog‘laydi”¹².

Sharq peripatetizmining so‘nggi yirik vakili va cho‘qqisi Ibn Rushd (Averroes) hisoblanadi. Ibn Rushd qarashlarida o‘zidan avvalgi peripatetiklarning ta‘limotlari

⁸ Али-заде А.А. Мутазилиды – основаели философского рационализма в исламе// Литературно-философский журнал «Топос». – М., 2004. – С. 3.

⁹ Шангараев Р.Р. Мусульманская религиозная философия. – Болгария: Болгарская исламская академия, 2020. – С. 102.

¹⁰ ابن باجة. كتاب النفس (Ibn Bojja. Jon haqida kitob) القاهرة، 2011. - ص 122.

¹¹ Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. – New York, 2004. – P. 281.

¹² Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. – New York, 2004. – P. 283.

ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Faylasufning o'zi ham o'zini yaratuvchi sifatida nomlamay, sharhlovchi sifatida ko'radi. Averroes yozuvlarining aksariyati ham sharhlar shaklida yozilgan Arastu asarlarining talqinidir. Uning falsafa va din o'rtasidagi munosabat haqidagi ta'limoti o'zidan avvalgi faylasuflar tomonidan to'plangan tajribani umumlashtirib beradi. Uning ta'kidlashicha, ikkisi ham –“faylasuf va oddiy mo'min” - baxtli bo'lishi mumkin, lekin har biri o'z yo'lida. Ibn Rushd falsafiy qarsashlarida ilohiyot dialektik, din esa ritorik hukmlarga asoslanadi. Ibn Rushd din insoniyat jamoasining integratsiyalashuvining zaruriy asosidir, busiz na axloqiy, na nazariy fazilatlarni egallash mumkin emas, deb hisoblagan. “Din hamma uchun mo'ljallanganligi, umumiy foydalanishi mumkin bo'lganligi va jamiyatda ilmiy bilimlarni rivojlantirish va nazariy fazilatlarni egallash uchun asos bo'lgan muayyan axloqiy me'yorlar va fazilatlarni saqlashga qaratilganligi uchun zarurdir”¹³, deb aytadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Ibn Rushd falsafani dalilga asoslangan hukmlarga tayanishini tarafdori bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, agar arab falsafasini o'rganadigan bo'lsak, biz unda vorisiylik asosidagi bir xillikni ko'rishimiz mumkin. Yuqorida nomma-nom sanab o'tgan faylasuflarning qarashlarida bir xil usul, bir xil avtoritetni misol qilib keltirish xos bo'lgan. Farqli jihati – ular qo'lga kiritgan fikriy taraqqiyotlari natijasida qo'llagan qo'shimcha va to'ldirishlaridadir.

Darhaqiqat, ilmning ratsionalizmga yo'naltirilganligi, mazkur davr arab mutafakkirlariga xos bo'lgan. Falsafaning ratsional fikr sifatida paydo bo'lishi fiqh va ilohiyotdagi mafkuraviy harakatlar bilan bog'liq edi. Islom madaniyati zamirida shakllangan ratsionallik islom dini bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Diniy hamda falsafiy bilimlar Haqiqatni izlashga yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos edi. Bunda falsafiy-ilmiy bilimlar tabiiy olamni, ijtimoiy, diniy bilimlar Haqiqatni izlashga qaratilganligi bilan ajralib turardi. Falsafiy va ilmiy bilimlar tabiiy olamni, ijtimoiy hayotni idrok etishga intilsa, diniy bilimlar esa e'tiborini narigi dunyoga qaratgan. Bunda yerdagi hayot haqidagi bilim narigi dunyoga yetishish uchun xizmat rolini o'ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Arturo Peres-Reverte. Una historia de Espana. – Espana, 2018.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. – New York, 2004.
3. Али-заде А.А. Мутазилиты – основаели философского рационализма в исламе// Литературно-философский журнал «Топос». – М., 2004.
4. Игнетенко А.А. В поисках счастья. – М., 1989. – С. 156. Фролова Е.А. Арабская философия. Прошлое и настоящее. – М., 2010.
5. Койре А.В. Очерки истории философской мысли. – М.: Прогресс, 1985.
6. Леви-Провансаль Э. Арабская культура в Испании. Общий обзор пер. с фр., Предисл. Иванова Н.А. – М.: Наука, 1967.
7. Рафаэль Альтамира-и-Кревеа. История Испании. Том 1. /Отв. ред. тома Ведюшкин В.А., Попова Г.А. – М.: Индрик, 2012.

¹³ Фролова Е.А. Арабская философия. Прошлое и настоящее. – М., 2010. – С. 142.



8. Шангараев Р.Р. Мусульманская религиозная философия. – Болгария: Болгарская исламская академия, 2020.
9. ابن باجة. كتاب النفس (Ibn Bojja. Jon haqida kitob) - القاهرة, 2011.
10. سيد ابن سيد. الفتح و السياسة. (Sayyid ibn Sayyid. Fiqh va siyosat). بيروت. ١٩٨٥.